

Sulton Mahmud Mirzo



Sulton Mahmud Mirzo

(1453 – Samarqand – 1495 yil)

(1494-1498)

Samarqand hokimi (1494-1498). Temuriylardan. **Abu Said mirzoning** 3-o'g'li. Otasi davrida Astrobod viloyati hokimi. **Abu Said Mirzo** vafoti (1469)dan so'ng Termiz, Chag'oniyon, Hisor, Xatlon, Quduz, Badaxshon va Hindikush tog'larigacha bo'lgan yerlar uning tasarrufiga o'tgan. Akasi Sulton Ahmad Mirzoning vafoti (1494)dan so'ng esa, Samarqand taxtiga o'tirgan. U zulmni haddan oshirgani uchun mamlakatning katta kichik aslzodalari, sipohiyar va oddiy xalq har tarafga tarqalib qocha boshlagan. Sulton Mahmud Mirzo taxtga da'vogar bo'lib kelgan amakivachchasi **Malik Muhammad Mirzo** va u bilan birga kelgan mirzolari qatl ettirgan. Sulton Mahmud Mirzo o'z hukmronligi davrida 2 marta **Husayn Boyqaro** bilan jang qilib, ikkalasida ham mag'lub bo'lgan. **Boburning Sulton Nigor xonim** ismli xolasi uning 4-xotini.

2023-10-30 00:12:20